

*N.M. Xamidova**O'zDJTU katta o'qituvchisi**K.A.Sheraliyev**O'zDJTU magistranti***REALIYALAR VA REALIYALARNING TARJIMA QILISH USULLARI**

ANNOTATSIYA: O'zbekistonda tarjima qilingan yapon asarlari juda ham oz. Bu yo'nalishda izlanishlar olib borish bizning mutaxassis sifatidagi maqsadimiz hisoblanadi. Bu maqolada tarjimashunoslik haqida ma'lumot berildi. Realialar va ularning o'ziga xosligi bo'yicha tushuntirish berildi. Yapon tilidagi realialarni tarjimashunoslikning qaysi usulida tarjima qilsa samarali bo'lishi haqida ilmiy izlanish qilinadi.

Kalit so'zlari: tarjima, realiya, transkripsiya usuli, tarjima usuli, yarim kalkalash vositasida tarjima qilish, o'zlashtirish usulida tarjima qilish, realialarni realialar bilan tarjima qilish, kontekstual tarjima

АННОТАЦИЯ: В Узбекистане переведенных японских произведений крайне мало. Исследования в этой области являются нашей целью как специалистов. В данной статье предоставлена информация о переводоведении. Даны разъяснения по реалиям и их особенностям. Проводится научное исследование того, какой метод перевода реалий с японского языка будет наиболее эффективным.

Ключевые слова: перевод, реальность, метод транскрипции, метод перевода, перевод с полукалькированием, перевод с заимствованием, перевод реалий реалиями, контекстуальный перевод.

ABSTRACT: In Uzbekistan, translated Japanese works are very few. Conducting research in this area is our goal as specialists. This article provides information about translation studies. Explanations are given regarding realities and their peculiarities. A scientific investigation is carried out on which method of translating realities from Japanese would be most effective.

Keywords: translation, reality, transcription method, translation method, translation through semi-calque, translation through adaptation, translating realities with realities, contextual translation.

Hozirgi kunda O'zbekistonda juda ko'p xorijiy tillar o'rganilmoqda va bu sohada bir qancha maxsus kurslar, til markazlari, oliy o'quv yurtidagi fakultetlar faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, yapon tilini ham har tomonlama chuqur o'rganish borasida juda ko'p foydali ishlar qilinmoqda. Oliy o'quv yurtlarida yapon tilini nafaqat muloqot uchun, balki ilmiy tadqiqotlar olib borish darajasida keng o'rganilmoqda. Yapon tilini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dunyo tilshunoslarining e'tiborida desak, mubolag'a bo'lamaydi. Hozirgi kunda yapon tili jahonning 130 ta davlatida o'rganilmoqda, O'zbekiston yapon tilini o'ganuvchi o'quvchilar soni jihatidan 35-o'rinda turadi¹. O'zbekistonda tarjima qilingan yapon asarlari juda ham oz. Bu yo'nalishda izlanishlar olib borish bizning mutaxassis sifatidagi maqsadimiz hisoblanadi. Bu maqolada

¹ Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kato Fumihikoning nutqidan. 14.11.2017. (Niponika gazetasi) 3-bet

yapon tilidagi realiyalarni tarjimashunoslikning qaysi usulida tarjima qilsa samarali bo'lishi haqida ilmiy izlanish qilinadi.

Tarjima nazariyasi

Tarjima- ma'lum bir manbaada yozilgan matnni boshqa chet tiliga o'tkazish harakati. Tarjima mexanik simvol almashtirish bo'lmaganligi uchun tarjimonlar tarjima vaqtida uchraydigan muammolarni hal qilish uchun tarjima strategiyalarining turli usullaridan foydalanadilar. Strategiya matn yozilgan til bilan tarjima qilinayotgan til o'rtasidagi munosabat o'zgarganda tabiiy ravishda o'zgarish xususiyatiga ega.² Hozirgi kunda ko'pgina asarlar ko'plab tillarga tarjima qilingan. Tarjimon nafaqat tilni, balki tarjima qilinayotgan mamlakat va o'sha mamlakat madaniyatini ham bilishi kerak. Matnni ma'nosini asl ma'nosidan uzoqlashmagan holda tarjima qilish juda muhim sanaladi. Muammo ko'proq mos tarjima usulini tanlash va madaniy farqlar tufayli manbaa tili va tarjima qilinayotgan til o'rtasidagi til ifodasi va mazmundagi farqni imkon qadar bartaraf etishdadir.

Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslikda turli muammolar mavjud. Ulardan biri madaniy farqlar tufayli yuzaga keladigan muammolardir. U madaniyatlararo farq deb nomlanadi. Agar siz so'z yoki jumlaning to'g'ridan-to'g'ri biror tilga tarjima qilsangiz, u tarjima jarayonida asl ma'nosidan boshqacha ma'no berishi mumkin. Ba'zi vaqtlarda kitobxon tarjima asar o'qiganda o'sha gapning yo ma'nosini tushunmaydi, yoki boshqacha ma'noni tasavvur qiladi. Shuning uchun tarjima jarayonida mos tarjima usulini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tarjimon uchun tarjima qilish murakkab bo'lgan oziq-ovqatga bog'liq realiyalarni qaysi uslubda tarjima qilsa kitobxon uchun tushunish oson bo'lishini aniqlash va qaysi usulda tarjima qilsa so'zning asl ma'nosiga yaqin ma'noda tarjima qila olishni aniqlashdan iborat.

Tarjima ilmi va amaliyotida o'g'irish qiyin bo'lgan so'zlar bir talay. Ularning asosiylari milliy o'ziga xos so'zlar bo'lib, xalqaro terminlarda realiyalar deyiladi. Realialar deganda ma'lum bir millat va elatga xos narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar va tushunchalar anglashiladi. Ularni boshqa tilga o'g'irishda tarjima tilining taraqqiyot darajasiga qarab katta-kichik muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolarning yechimi, ularning tasnifi va tavsifi tarjima nazariyasida o'rganilmoqda. Umumiy qonun-qoidalar bilan birga har bir til juftligida maxsus qoidalar ishlab chiqilmog'i lozim. Chet tillardan o'zbek tiliga o'g'irilayotgan asarlarda ana shu muammolar hanuzgacha tarjimonlar va muharrirlarning boshini qotirib kelmoqda; bir nomning o'zini bir necha xil yozish va talaffuz qilish hollari har qadamda uchramoqdaki, bu yakdillik talab qiladi.³

Realia haqida tushuncha

Realia so'zi lotincha realia dan olingan bo'lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma'nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik realia deyiladi."⁴

² ガラハーニー, ファテメ (2018) 『日本語・ペルシア語間翻訳における翻訳方略と重訳の影響』

³ <https://saviya.uz/ijod/tilshunoslik/nomlarning-nomunosib-tarjimasi/>

⁴ Sodiqova S.A Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi 2005,7-bet

Realiyalar - u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea - hodisalarni ifodalovchi xos soʻzlardir. Realiyalar soʻz birikmalari, frazeologizm maqol, matal ham boʻlishi mumkin. Realialarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti realialarning mohiyatiga, albatta, oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Ana shuning uchun ham realiyalar toʻgʻrisida gapirganda milliy oʻziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab oʻtib boʻlmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning oʻziga milliy va tarixiy boʻyoqqa ega boʻladilar. Bu esa ularga alohida munosabatda boʻlishlikni talab qiladi. Masalan, oʻzbek tilida toʻnini teskari kiymoq, doʻppisini osmonga otmoq iborolari orqali xursand boʻlmoq, quvonmoq, behad sevinmoq maʼnolarini oʻzbeklar, aynan, milliy kiyimi yoki kasb-kori bilan bogʻliq soʻzlar bilan ifodalagan. Bu holat ham realiya birliklarga misol boʻlishi mumkin. M. L. Vaysburd realiyaning mamlakatshunlik asnosida yondoshadi va bu haqda quyidagi fikrlarni aytadi: “Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa koʻplab narsalar nomlaridan iborat”⁵

Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha ensiklopedik lugʻatida realiyalarga anchagina batafsil izoh berilgan: “Realiyalar – u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos soʻzlardir. Realiyalar soʻz birikmalari, frazeologizm, maqol, matal ham boʻlishi mumkin. Lingvistik tarjimashunoslikning yirik naraziyotchilaridan biri boʻlgan L. S. Barxudarov realiyalarga bir qadar muxtasar taʼrif bergan: “Realiyalar – shunday soʻzlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud boʻlmagan leksik birliklardir.” Realiyalar toʻgʻrisida haqiqatga yaqin taʼrifni S. Vlasova va S. Florinlar berganlar. Unga koʻra: “Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalari boʻlib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar.”⁶

Realialarni tarjima qilishda ishlatiladigan maxsus tarjima usullari

Bir tildagi matnlarda xorijiy realialarning qoʻllanilishini ularni bir-tildan ikkinchi tilga tarjima qilish masalasi bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Aslida, mavjud nazariy adabiyotlarda mutaxassislar realiyoqlarni bir tildan ikkinchisiga oʻgirishning ikki usulini taʼkidlaydilar: transkripsiya va tarjima usuli.

Realialarni boshqa tilda qayta yaratishda transkripsiya usuli qoʻl kelmagan paytlarda ularni boshqa yoʻllar bilan tarjima qilishga harakat qilinadi. Tarjima qilish usulining ham bir necha koʻrinishlari mavjud. Ular quyidagilar:

Neologizmlar qoʻllash. Bunday usul transkripsiyadan keyingi oʻrinda turadi va u tarjimada asliyatdagi realiyaning mazmuniy asosi hamda milliy oʻziga xosligini saqlab qolishda samarali yoʻllardan hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlariga esa kalka va yarim kalka kiradi. a) kalkalash. Kalkalashning mohiyati asliyatdagi soʻzning anglatgan maʼnosini aynan oʻgirishga asoslanadi.

⁵ Sodiqova S.A Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi 2005,7-bet

⁶ Sodiqova S.A Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi 2005

Jumladan, ingliz tilidagi skyscraper realiyasini (sky – osmon, samo; scraper-taroshlash, supurish) rus tiliga neboskreb tarzida to‘la kalkalash, o‘zbek tiliga esa osmono‘par tarzida

b) yarim kalkalash vositasida berishdir. Ushbu kalkalash usuli asliyatning yevropacha koloritini saqlab qolganligi bilan e‘tiborlidir. Yarim kalkalashga Amerika istorizmlaridan carpet bagger ni rus tilida sokvoyajnik tarzida berilishini ham keltirish mumkin. Ingliz tilidagi —er ot yasovchi qo‘shimchasini rus tilidagi “nik” bilan almashtirish yaxshi natija bergan. Buni o‘zbek tilida —chi yoki —ist qo‘shimchalari yordamida, aniqrog‘i, taxi driver - taksist, nexia driver – neksiyachi tarzida berilishini ham misol keltirish mumkin.

b) O‘zlashtirish. Xorijiy til realiyalarida shunday so‘zlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib, o‘zlashib ketganlar. Ruslardagi rubl realiyasi o‘zbeklarda rubl bo‘lib o‘zlashib ketgan. Shuningdek, Yevropadagi Euro (oyro) o‘zbek tilida Yevro deb o‘zlashtirilgan. Bu ham aslida talaffuz qoidalari bilan bog‘liq hodisa. Ruslardagi snegoxod, vezdexod, tepoloxod, poroxod kabi transport vositalari o‘zbek tiliga ham aynan holda o‘zlashganligini ta‘kidlash kerak. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda.

c) realiyani realiya bilan berish. Ingliz tilida bell-boy degan realiya bor. Bu mehmonxonalarda mijozlarga xizmat qiladigan mulozimlardir. Aniqrog‘i telefon qilinsa telefonni ko‘tarishadigan, xonangga biror narsa kerak bo‘lsa keltirib beradigan xizmatchilar, bo‘lib, odatda ularning xizmatlari uchun choy-chaqa berish rusumga kirgan. AQSH mehmonxonalarida ularga choy-chaqa bermasangiz, sayohatingiz qandaydir noma‘lum sabablarga ko‘ra noxush o‘tishi ham mumkin. Masalan, dush qabul qilayotganingizda suv to‘xtab qolishi, lift ishlamay qolishi, nomeringizning kaliti eshikka tushmay qolishi hech gap emas. Aslida, bunday kutilmagan ko‘ngilsizliklarning ostida anashu xizmatchilarning choy-chaqasini o‘z vaqtida va odatdagi summada rozi qilinmagani yotadi. Mazkur so‘zni inglizcha-ruscha lug‘atlarda коридорный, посыльный tarzida beriladi. Aslida bu koridor xizmatchisi yoki xat tashuvchi ma‘nolaridan kengroq ma‘noga ega. Buni rus tilida yana «мальчик в поберушках» (ish buyursangiz, yugurlab bajaruvchi bolakay) ma‘nosini bildiradi. Ruscha variant ana shu inglizcha realiyaning o‘ziga xos realiya-ekvivalenti desak to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shunga o‘xshagan misol sifatida nemis tilidagi bunker realiyasini ham misol keltirish mumkin. Rus tilida unga muqobil sifatida dot variant ham keltiriladi. Bundan tashqari uning rus va o‘zbek tillarida tranaskriptsiya shaklida berilishini ham ko‘rishimiz mumkin. Inglizcha o‘lchov birliklaridan inch golland tilida dyum, ruschada десятина, fransuzchada arpan realiyalari bilan ifodalanadi.

d) realiyalarni taxminiy tarjima qilish. Taxminiy tarjima realiyalarga nisbatan unchalik faol ishlatilmasada, ular ham tillararo realiyalarni o‘girishning yana bir usuli hisoblanadi. Taxminiy tarjimada asliyatdagi realarning milliy xosligi bir qadar yo‘qolishi mumkin. Masalan, qardosh respublikalarda faol ichimlik sifatida qo‘llanib kelinayotgan nazran va borjomi mineral suvlarini, o‘zbek tilida nazran va borjomi shaklidagina berilsa, ko‘proq katta yoshdagilar tushunishlari mumkin. Yoshlarga maxsus tushuntirish talab qilinadi. Akas holda faqatgina mineral suv taxminiy tarjima variant bilangina kifoyalanishga to‘g‘ri keladi. Masalan, nemislarda kirche, inglizlarda chirch, ruslarda esa, tserkov degan realiyalar bor. Ularning har biri nasroniy dinga e‘tiqod qiluvchilar ibodatxonasi ma‘nosida ishlatiladi. Aytish kerakki, ushbu realiyalarni muqobil varinti bilan berib bo‘lmaydi. Bunday eng to‘g‘ri yo‘l transkriptsiyalash bilan birgalikda uning tarjima tilidagi muqobili, o‘xshshi bo‘lgan variantini ham keltirib, shu kabi, shunday maqsadlarda ishlatiladigan joy, tarzida ifodalash to‘g‘ri bo‘ladi.

e) realiyalarni tavsiflash, tushuntirish, izohlash bilan tarjima qilish. Tavsiflash va izohlash realiyalarning tarjimasidagi muhim usullardan hisoblanadi. Masalan, nemisladagi “Paff” realiyasi “suyak o’yini”dir. Uni boshqa tilga transkripsiyalash bilan birga ana shunday izoh berish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari “lapta” degan o’yin ham bor. Buni “to’p bilan o’yin” ma’nosida qo’llanilishini izohda keltirilishi lozim.

f) kontekstual tarjima. Ruslarda dam olish uchun beriladigan yo’llanmani “путевка” deyiladi. Ushbu so’zning haqiqiy ma’nosi yo’llanmadir. Lekin kontekstual nuqtai nazardan qaraganda uning faqat sog’liqni saqlashga qaratilgan yo’llanma ekanligini tushuntirish lozim. Ingliz tiliga uni “accommodation health resourt” tarzida ifodalanadi⁷

XULOSA

Maqolada tarjima nazariyasi, realiyalar, tildagi realiyalarning ahamiyati, realiyalarning o’zga tilga tarjima qilish usullari ko’rib chiqildi. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, realiyalarni tarjima qilish odatiy gaplar, yoki so’zlarni tarjima qilishdan murakkabroq. Har bir realiyani tarjima qilish jaroyonida o’z ma’nosini yo’qotmagan holda tarjima qilish juda muhim. Realialarni tarjima qilishda ishlatiladigan bir nechta tarjima usullari mavjud. Bularga misol qilib kalkalash, yarim kalkalash, o’zlashtirish, realiyalarni realiyalar bilan tarjima qilish, realiyalarni taxminiy tarjima qilish, realiyalarni tavsiflash, tushuntirish, izohlash bilan tarjima qilish va kontekstual tarjima larni keltirishimiz mumkin. Realialarni tarjima qilishda har doim faqat bir tarjima usulidan foydalanib bo’lmaydi. Ma’lum bir so’zlarni tarjima qilayotgan realialarni izohlab tarjima qilish usuli tushunarliroq tarjima qilsa, ma’lum bir so’zlarni tarjima qilishda o’zlashtirish usuli, ma’lum bir so’zlarni tarjima qilishda esa tarjima qilinayotgan tildagi realiyalar bilan tarjima qilish usuli foydali va tushunarli bo’ladi degan xulosaga keldik. Har bir realiyani tarjima qilayotganda individualniy shug’ullanish kerak. Bu esa tarjimonning mahoratiga bog’liq hodisa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Yaponiyaning O’zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kato Fumihikoning nutqidan. 14.11.2017. (Niponika gazetasi) 3-bet
2. Lingvistika atamalar lug’ati
3. ガラハーニー, ファテメ 『日本語・ペルシア語間翻訳における翻訳方略と重訳の影響』、2018
4. Sodiqova S.A Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi 2005
5. <https://saviya.uz/ijod/tilshunoslik/nomlarning-nomunosib-tarjimasi/>

⁷ Sodiqova S.A Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi 2005, 30-34-betlar